

**APOTOZ VA NEKROZNING BIOKIMYOVIY MEXANIZMLARI  
VA KLINIK AHAMIYATI**

*Ilmiy Rahbari: Alfraganus universiteti*

*Klinik fanlari kafedrasi assistenti*

***Maxmanazarov G'afur Axnazarovich***

***To'xtasinov Ibrohimjon***

*Alfraganus Universiteti*

*Tibbiyot kafedrsi, davolash fakulteti*

*2-kurs, 240-guruh talabasi*

**ANNOTATSIYASI**

Mazkur mustaqil ishimda hujayra o'limining ikki asosiy shakli — apoptoz va nekrozning biokimyoviy mexanizmlari, ularning molekulyar darajadagi farqlari, shuningdek, klinik ahamiyati keng yoritilgan. Apoptoz — bu genetik nazorat ostida kechadigan, energiyaga bog'liq bo'lган va fiziologik holatlarda yuz beradigan programmalangan hujayra o'limi bo'lib, embrional rivojlanish, immunitet muvozanatini ta'minlash va o'sma hujayralarini yo'q qilish kabi jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Nekroz esa — tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan, tartibsiz, passiv va ko'pincha yallig'lanish bilan yakunlanuvchi patologik hujayra o'limi shaklidir.

**Kalit so'zlar:**

Apoptoz, nekroz, hujayra o'limi, kaspazalar, mitochondrial yo'l, biokimyoviy mexanizm, yallig'lanish, signal zanjiri, klinik ahamiyat, o'sma kasalliklari.

Apaptoz va nekroz o'zi nima va ular qanday holatlar hisoblanadi!

Hozir birma bir o'rganib chiqamiz!

**Apoptoz** – hujayra o'limining dasturlashtirilgan shakl

Apoptoz bu – genetik nazorat ostida kechadigan fiziologik jarayon bo'lib, organizm rivojlanishi, immunologik barqarorlik va hujayra populyatsiyasini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. U energiya (ATP) talab qiluvchi jarayon bo'lib, hujayraning o'zini o'zi xavfsiz tarzda yo'q qilishiga olib keladi.

**Muhim bosqichlar:**

Tashqi yo'l (extrinsic): FasL yoki TNF $\alpha$  ligandlarining retseptorlarga ulanib, kaspaza-8 ni faollashtirishi.

Ichki yo'l (intrinsic): mitoxondriyalardan sitoxrom-c ajralishi va apoptosoma kompleksining hosil bo'lishi (Apaf-1 + sitoxrom c + kaspaza-9).

Effektor kaspazalar: kaspaza-3, -6, -7 hujayra ichidagi oqsillarni parchalab, strukturaviy buzilishlarga olib keladi.

**Inson organizmida kuzatiladigan holatlar:**

Embrional rivojlanish: barmoq orasidagi to'qimalar, timusdagi T-limfotsitlar tanlovi.

Neyronlar: ortiqcha neyronlar sinapslar paydo bo'lmaganda apoptotik yo'l bilan yo'q qilinadi.

Onkologiya: p53 geni mutatsiyasi → apoptoz buziladi → o'sma hujayralar tirik qoladi.

Immunitet: avtoimmun kasallikkarda apoptoz buzilishi natijasida avto-reaktiv limfotsitlar yo'q qilinmaydi.

1. Apoptoz: molekulyar bosqichlar va organizmdagi namoyon bo'lishi

**Bosqichlari (4 asosiy faza):**

**1.1. Signal (induksiya) fazasi**

Ichki signal: DNK shikastlanishi, oksidlovchi stress, sitotoksik dori vositalari → p53 geni faollashadi → Bcl-2 oilasi: BAX va BAK mitoxondriyanı teshadi

Tashqi signal: FasL va TNF $\alpha$  ligandlari Fas yoki TNFR1 retseptorlari bilan bog'lanadi → FADD + kaspaza-8 kompleks

**1.2. Transduksiya fazasi**

Mitoxondriyalardan sitoxrom c chiqadi → Apaf-1 bilan apoptosoma kompleks hosil qiladi

Kaspaza-9 → kaspaza-3, -6, -7 ni faollashtiradi

**1.3. Effektor fazasi**

DNK fragmentatsiyasi (endonukleaza faollashuvi)

Hujayra qisqaradi, blebbing paydo bo'ladi

Organoidlar funksiyasini yo'qotad

#### **1.4. Fagositoz**

Apoptozlangan hujayralar "eat-me" signali beradi (fosfatidilserin tashqi qatlamga chiqadi)

Makrofaglar yutib yuboradi — yallig'lanish chaqirmaydi

#### **Organizmda yuzaga keladigan holatlar:**

Holat Apoptozdagi roli

Embriogenez Hujayralarni ortiqchasiidan tozalash (masalan: barmoq orasidagi to'qimalar yo'qoladi)

Timusda T-hujayralar Avtoimmunlikni oldini olish uchun noto'g'ri rivojlangan T-limfotsitlar apoptozga uchraydi

Sut bezlarida laktatsiya tugagach Epitelial hujayralar apoptoz orqali yo'q qilinadi

Nevrodejenerativ kasalliklar Parkinson va Alzheimerda ortiqcha apoptoz neyronlar yo'q bo'lishiga olib keladi

Onkologiya Apoptoz buzilganda hujayralar o'smaga aylanishi mumkin (masalan, Bcl-2 ortiqcha ekspressiyasi limfomalarda)

#### **Nekroz – tartibsiz, passiv hujayra o'limi**

Nekroz – bu hujayraning patologik shikastlanish natijasida vafot etishidir. U ko'pincha energiya tanqisligi, ionlar disbalansi va oksidlovchi stress bilan bog'liq. Jarayon passiv bo'lib, hujayra membranasi yorilishi, sitoplazmaning tashqariga chiqishi, va yallig'lanish reaksiyasi bilan kechadi.

Asosiy sabablari: Ishemik shikastlanish (masalan, infarkt), Toksinlar ta'siri, Travma, Infeksiyala

#### **Bosqichlari va mexanizmi:**

##### **2.1. Shikastlanish bosqichi:**

Energiya ishlab chiqarish buziladi → ATP darajasi keskin pasayadi. Ion

nasoslari ishdan chiqadi ( $\text{Na}^+/\text{K}^+$  ATPaza) → hujayra ichiga  $\text{Na}^+$  va suv kiradi → shish.

Kalsiy ionlari ortadi → fosfolipazalar, proteazalar, endonukleazalar faollashadi.

### **2.2. Membrana yorilishi:**

Plazmatik va mitoxondrial membrana teshiladi, lizosomal fermentlar sitozolga oqadi.

Sitoplazmadagi tarkib tashqariga to'kiladi → immun javob kuchayadi.

### **2.3. Yallig'lanish va to'qima shikasti**

Nekrotik hujayralar atrofdagi hujayralarga zarar yetkazadi.

Interleykinlar (IL-1 $\beta$ , TNF $\alpha$ ) va prostaglandinlar ajralib chiqadi.

#### **Inson organizmida kuzatiladigan holatlar:**

Miokard infarkti: qon oqimi to'xtaydi → ishemiya → nekroz → to'qima o'rnini biriktiruvchi to'qima egallaydi (skar).

Insult (gemorragik/ishemiya): neyronlar kislorod yetishmasligidan nekrozga uchraydi.

Jarohatlar, kuyishlar: mexanik yoki termik zarba → nekrotik zonalar.

Virusli hepatitlarda: jigar hujayralari nekrozi yuz beradi.

Pankreatit: yallig'lanish fonida oshqozon osti bezi hujayralari nekrozlanadi.

#### **Nekroz: buzilish sabablari, bosqichlar va klinik oqibatlar**

Nekrozning bosqichlari:

#### **1. Yadro o'zgarishlari:**

Piknoz: yadro zichlashadi

Karyoreksis: yadro parchalanadi

Karyolizis: yadro butunlay eriydi

#### **2. Sitoplazmatik o'zgarishlar:**

Mitoxondriyalar shishadi

Membrana butunligi buziladi

Lizosomal fermentlar chiqib, hujayrani hazm qiladi

### **Apaptoz va Nekrozning diagnostic ahamiyati**

Yo'nalish	Amaliy ahamiyati
Onkologiya	Apaptozni faolashtiruvchi dori vositalari o'smani kamaytiradi (masalan, Veneroklax - )
Yallig'lanishda	Nekrozni kamaytirish orqali yallig'lanish reaksiyasini oldini olish mumkin
Neyrologiya	Apaptozni bloklovchi terapiyalar alzhemir va parkinsonda neyronlar yo'qotilishi kamayadi
Biomarkeri	Apaptozda sitoxrom c, karpaza-3 Nekrozda LDH,AST/ALT,tropin

#### **Xulosa :**

Apoptoz va nekroz holatlarini nazorat qilish va oldini olish sog'lom hujayra funksiyasini saqlash hamda ko'plab kasalliklarning rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Apoptoz fiziologik jarayon bo'lib, u kerakli holatlarda yuz bersa foydali bo'ladi, ammo ortiqcha yoki noto'g'ri faollashuvi (masalan, nevrodegenerativ kasalliklarda) salbiy oqibatlarga olib keladi

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- 1."ICHKI KASALLIKLAR" Sh.M. Rahimov, F.K. Gaffarova, G.A. Ataxodjayeva
2. "ПРОПЕДЕВТИКА ВНУТРЕННИХ БОЛЕЗНЕЙ" А.Г. ГАДАЕВ, М.Ш. КАРИМОВ, А.Г. КУЧЕР, Х.С. АХМЕДОВ
3. Г.А.Махманазаров "Изменения функционального состояния организма в динамике повседневной работы медицинской персонала, работающего с трупами" // " Медицинский журнал молодых

ученых” //311-313-2025г

Kerr J.F.R., Wyllie A.H., Currie A.R. – “Apoptosis: A Basic Biological Phenomenon with Wide-Ranging Implications in Tissue Kinetics”, British Journal of Cancer, 19

Apoptoz atamasini birinchi bo‘lib ilm-fanga kiritgan mualliflar va klassik maqo

la.

Elmore S. – “Apoptosis: A Review of Programmed Cell Death”, Toxicologic Pathology,